NEUROPSYCHOLOGICAL FEATURES OF READING

Kimsanov J.

University economics and pedagogy,

Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences

KITOB O ‘QISHNING NEYROPSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Kimsanov J.

University economics and pedagogica,

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o ‘qituvchisi

Аннотация: В данной статье рассматриваются нейропсихологические особенности процесса чтения книг как сложной когнитивной деятельности. Чтение анализируется с позиции взаимодействия различных структур головного мозга, обеспечивающих восприятие, понимание и интерпретацию письменной информации. Особое внимание уделяется роли высших психических функций, таких как внимание, память, мышление и речевая деятельность, а также механизмам межполушарного взаимодействия.

Ключевые слова: чтение, нейропсихология, когнитивные процессы, высшие психические функции, мозг, нейропластичность, речь.

This paper examines the neuropsychological characteristics of book reading as a complex cognitive activity. Reading is analyzed from the perspective of the interaction between various brain structures responsible for the perception, comprehension, and interpretation of written information. Special attention is paid to higher mental functions such as attention, memory, thinking, and speech, as well as mechanisms of interhemispheric interaction. The neural bases of visual text perception, phonological processing, and semantic analysis are discussed.

Keywords:reading, neuropsychology, cognitive processes, higher mental functions, brain, neuroplasticity, speech.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzioyev – “Kitob o‘qish – inson tafakkurining o‘zuqasidir” – degan goyalarni ilgari surgan. Psixologlarning ta’rificha, kitob o ‘qish insonning emotsional intellektini rivojlantiradi. Fiktsiya va personajlar bilan bog’lanish, empatiyani rivojlantirishi haqida tushuntirgan.

Neyropsixologiya kitob o ‘qishning emotsional tajribalarga ta’sirini o‘rganadi, bu esa insonning ijodiy va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko ‘rsatadi. Shuningdek, olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, kitob o‘qish stressni kamaytirishning samarali usuli ekanligi, isbotlangan. Fan nuqtai nazaridan, neyropsixologiyada o‘qishning relaksatsiya va shodlik hissini rivojlantirishdagi roli yuqoriligi aniqlangan.

Stressni kamaytirish miyaning faoliyatini yaxshilaydi, bu esa ijodiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko ‘rsatadi.

Kitob o‘qish – bolalarning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim omil. Ota-onalar va o ‘qituvchilar bu jarayonda muhim rolь o‘ynaydilar. Ular bolalarning kitob o ‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda, ularni rag’batlantirishda va kitoblarni tanlashda yordam berishda muhim ahamiyatga ega.

Oilada farzandlarni kitobga o‘qishini motivatsiyasini rivojlantirish avvalo ota-onani o‘zi bu amaliy ko‘nikmaga ega bulishi shart, kitob o‘qigan bolani esa qiziqishlarini qo‘llab -quvvatlash uchun ularni ragbatlantirish muxim omil bo’lib xisoblanadi:

- Ota-onalar kitob o‘qishni o‘zlari ham amalga oshirishi kerak. Bu bolalarga kitob o‘qishning ahamiyatini ko ‘rsatadi.
- Ma’naviy muhit yaratish: oilada kitoblar bo‘lishi, kitob o ‘qish uchun maxsus vaqt ajratish.
- Ota-onalar bolalarining yoshi va qiziqishlariga mos kitoblarni tanlashda yordam berishlari kerak.
- Mazmuni va janri bo ‘yicha bolalarning qiziqishlarini aniqlash.
- Kitob o‘qish jarayonida bolalar bilan birgalikda o ‘qish, muammolarni muhokama qilish.
- Ota-onalar bolalarining kitoblar haqida so‘zlashishlari va ularning fikrlarini eshitishlari kerak.

Navbatdagi ta’sir mexanizmi bu o‘qituvchilarning kitob o‘qishni ragbatlantirishdir: Kitob o‘qish va o‘qituvchilar darslarda kitob o‘qishning ahamiyatini ta’kidlashlari kerak.

O‘quvchilarni kitob o ‘qishga rag’batlantirish uchun maxsus tadbirlar tashkil etish;

O‘qituvchilar bolalarning qiziqishlari va ta’lim darajasiga mos kitoblarni tavsiya qilishlari kerak;

Yangi kitoblar, mualliflar va janrlar haqida ma’lumot berish;

Kitoblardan foydalanish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

Kitob o‘qishni muhokama qilish, guruhlarda yoki jamoalarda kitoblar haqida savol-javob, bahs-munozaralar, debatlar o‘tkazish, maqsadga muvofiqdir.

Nazariy taxlillarga tayangan holda, ushbu metodlar o ‘quvchilarda, bilim, ko‘nikmani shakllantirish hususiyatiga e’ga. Kitob o ‘qishnni amaliy jihatdan ham o‘rganish zarur, har bir ilmiy tadqiqot extiyojlarni o‘rganib turib keyingina uni kamchiliklarini va amaliy jixatlariga xos amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish ilmiy faoliyatni rivojlantiradi.

O‘zbekistonda talabalar o ‘rtasida turli eksperimentlar va tadqiqotlar ham olib borilgn. Ushbu tadqiqotlar oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, talabalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Keling, ba’zi asosiy eksperimentlarni ko‘rib chiqaylik:

University economics and pedagogica universitetining xorijiy filologiya 2 bosqich talabalari 4 ta gurux o ‘rtasida “Tafakkur” mavzusida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotni maqsadi: Talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Qo‘llanilgan usul: guruhdagi talabalarga ijodiy muammolarni hal qilish uchun turli vazifalar berildi. 10-11 gurux talabalarida munozara qiziqarli o‘tkazildi, 12-13 gurux talabalari o ‘rtasida muxokamalarga talabalar bir tomondan yondashgani aniq bo ‘ldi. Tahlil natijalarini umumlashtirganimizda 10 va 11 gurux talabalarining 80% qo‘shimcha o ‘quv kurslariga borishlari, darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun deyarli ko ‘p vaqtini badiiy kitoblar o‘qishga sarf qiliayotganligi ma’lum bo‘ldi. 12 va 13 guruxlarda esa 10 % talabalar o ‘quv kurslariga borishlarini bildirdilar. Lekin umumiy natijalar ijodiy fikrlashni faollashtirishda samarali bo‘lganini ko‘rsatdi.

2. Kognitiv qobiliyatlarni aniqlash da ham xuddi shu talabalar ishtirok etdi.

Maqsad: Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini o‘rganishdan iborat e’di.

Usul: Talabalarga miya faoliyatini va diqqatni tekshirish uchun testlar o‘tkazilgan. Natijalar talabalarning aniqlik va diqqat bilan bog’liq qobiliyatlarini ko ‘rsatdi.

Ijtimoiy faollikni aniqlash tadqiqotida, talabalarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish maqsadi ko ‘zlangan e’di.

Usul: Talabalarga jamoa ishlari, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish taklif qilingan. Bu ularning ijtimoiy ko ‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Talabalarni kreativ fikrlashini o‘stirishda ta’lim metodlarini qo‘llash tadqiqtida, turli ta’lim metodlarining samaradorligini tekshirish, maqsadi qo‘yilgan e’di.

Usul: Talabalarga an’anaviy va innovatsion ta’lim metodlari bilan o‘qitish. Natijalar innovatsion metodlarning samaradorligini ko ‘rsatdi.

Har bir ta’lim-tarbiyani tashkil e’tishda o‘quvchilarda kitob o‘qish motivatsiyasini rivojlantish tadqiqotida. Maqsad: Kitob o‘qishning talabalarning bilim olishga ta’sirini o‘rganish.

Usul: Talabalarga ma’lum bir kitoblarni o‘qish taklif qilingan va ularning bilimlarini baholash uchun testlar o‘tkazilgan. Natijalar kitob o‘qishning bilim olishdagi ahamiyatini ko‘rsatdi.

O ‘tkazilgan tadqiot natijalari asosida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, talabalarni atrofidagi ijtimoiy muxit ularni kitobga va o ‘qishga bo ‘lgan munosabatlarini rivojlanishiga katta ta’sir ko ‘rsatar ekan, deyarli kitob o‘qiydigan talabalarni ota-onalari va do ‘stlari kitobga qiziqishlarini va o ‘qishlarini ma’lum qilishdi.

Xulosa o ‘rnida aytish mumkinki, muxtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan oliy ta’lim muassasalarilarida avvalo axborot resurs markazlarida barcha sharoitlarni yaratib berish, barcha fanlar bo‘yicha ilmiy maxsulotlarni yangi bazalarini yaratish, shuningdek, internet tarmoqlari orqali elektron resurslarni yaxshilash ishlariga aloxida start berildi, bu sharoitlar esa talabalar o ‘rtasida ta’lim sifati va talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ularning ma’naviy va ilmiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning eng maqbul usuli bo‘lib xisoblanadi. Kitob o ‘qish neyropsixologiyada muhim ahamiyatga ega. U miyaning faoliyatini rivojlantirib, kognitiv qobiliyatlarni yaxshilaydi, emotsional intellektni oshiradi va stressni kamaytiradi. Shuning uchun kitob o‘qishni rag’batlantirish va uni hayotimizda muhim o‘ringa ega qilish kerak.

Amaliy tavsiyalar:

Zakovat guruxlarini tashkil qilish;

Kitoblarni tanlashda yordam berish;

Masalalarni hal qilish: Talabalarga ijodiy muammolarni hal qilish uchun guruhlarda ishlashni taklif qilish.

Ijodiy loyihalar: Talabalarni ijodiy loyihalarda ishtirok etishga rag’batlantirish;

Testlar va o ‘yinlar: Kognitiv qobiliyatlarni tekshirish uchun testlar va miya o‘yinlarini o‘tkazish;

Diqqatni rivojlantirish: Diqqatni rivojlantirish uchun maxsus mashg’ulotlar tashkil qilish;

Innovatsion metodlar: Innovatsion ta'lim metodlarini joriy eting va ularning samaradorligini baholash.

Fidbek olish: Talabalardan o'qitish metodlari haqida fidbek olish .

Foydalangan adabiyotlar ro 'yxati

1. Kasimova N.D. *The role of reading culture in increasing the effectiveness of education and upbringing* — статья опубликована в *Asian Journal of Multidimensional Research* (Vol. 11, No. 2025).
2. Alimov. A. (2019). Kitob o 'qish va ijodiy faoliyat. Toshkent: O 'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. Sidorov. I. (2021). Neyropsixologiya va ta'lim. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Murodov. B. (2022). Ijtimoiy faoliyat va talabalar. Toshkent: Oliy ta'lim instituti.